



**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK
O'QITUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
TA'LIMY LOYIHALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI**

Yuldasheva Malohat Erkinovna

dotsent, PhD.

Rahimova Feruza Najmiddinovna

dotsent, PhD. Qo'qon davlat universiteti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligini rivojlantirishda ta'limiy loyihalardan foydalanish mexanizmi hamda talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda ta'lim shakllarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion yondashuv, bilish faolligi, individual yondashuv, ta'lim shakllari, individual ta'lim vositalari.*

2020-yil 25-dekabr kuni Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Yoshlar forumiga tashrif buyurib, yoshlar bilan uchrashuv davomida bugungi yoshlar millat kelajagi uchun ulkan kuch ekanligini alohida ta'kidladi. U o'z nutqida shunday degan edi: "Biz sizlarning g'ayratingiz va qat'iyatingizga ishonamiz. Barchangizga ma'lumki, bugun oldimizga ulkan maqsadlarni qo'yganmiz. Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimi, shuningdek, ilmiy va madaniy muassasalarni bo'lajak Uyg'onish davrining eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu bois bu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonchim komilki, sizlar kabi fidoyi va vatanparvar yoshlar mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar."

Zamonaviy voqelik sharoitidan kelib chiqib, innovatsion ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning bilimlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi ijodiy individuallikka va o'ziga xos kreativ tafakkurga ega shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Faqatgina maxsus bilimlarni egallash yaxshi mutaxassis bo'lish uchun yetarli emas. Shuningdek, shaxsning individual xususiyatlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ta'lim jarayonida individual yondashuvni rivojlantirish hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, bilish jarayonlarini zamonaviy ta'lim shakllari va vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan kutubxonalar va innovatsion markazlar talabalarning bilish faolligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



etadi. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligini rivojlantirishda dars shakllari va qo'llaniladigan metodlar muhim o'rin tutadi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari oliy ta'lim muassasasida o'quv faoliyatini tashkil etishning amaliy shakllari bo'lib, ularni umumiy holda "guruh mashg'ulotlari" deb atash mumkin. Chunki ular har qanday kasbiy faoliyatda uchraydigan amaliy vaziyatlarni modellashtirish va muhokama qilishga xizmat qiladi. Barcha amaliy mashg'ulotlar (nazariy masalalar bo'yicha seminar-munozaralar ham) "ushbu nazariy xulosani amaliyotda qo'llash" tamoyili asosida tashkil etiladi.

Amaliy ta'limning barcha shakllari (seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar) turli real vaziyatlarda inson faoliyatini psixologik tahlil qilish va baholash bo'yicha amaliy harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Psixologiya fanidan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarning barchasi talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rgatishga qaratilgan.

Shu maqsadda guruhda talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatidan namunalar ta'limiy vaziyatli topshiriqlar ko'rinishida modellashtiriladi. Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar tegishli psixologik bilimlarni qo'llashni o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarning vazifalari dars shakliga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Seminarlarda talabalar amaliy vaziyatli muammolarni hal etishning turli variantlarini muhokama qiladilar va psixologik nuqtayi nazarlarni dalil sifatida ilgari suradilar. Qarorning to'g'riligi esa o'qituvchi rahbarligida jamoaviy ravishda baholanadi.

Munozarali seminarlar, odatda, amaliy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan turli psixologik tadqiqot metodlarini muhokama qilishga bag'ishlanadi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar kelajakda ishlaydigan bolalar va kattalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish usullarini o'zlashtiradilar.

Amaliyot esa ta'lim muassasasining o'zida yoki talabalar amaliyot o'taydigan joylarda tashkil etilib, ularga mutaxassisligi bo'yicha aniq vazifalarni hal qilishni o'rgatishga xizmat qiladi. Masalan, maktab psixologi uchun bu muayyan sinfdagi o'quvchilar jamoasida yuzaga kelgan psixologik nizoni bartaraf etish vazifasi bo'lishi mumkin.

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy maqsadi talabalarga psixologiyani fan sifatida o'rganishni o'rgatishdan iboratdir. Ma'ruzada eshitilgan yoki maxsus adabiyotlarda o'qilgan ilmiy g'oyalar tadqiqotlar orqali tasdiqlanadi, talabaning shaxsiy tajribasi bilan boyitiladi va shu sababli yanada chuqurroq o'zlashtiriladi.

Laboratoriya ishlari tufayli talaba nafaqat nazariy qoidani biladi, balki uning real tadqiqot jarayonida qanday olinishi mumkinligini ham tushunadi. Natijada u aniq ma'lumotlardan umumlashtirilgan yaxlit nazariy xulosalar chiqarishni o'rganadi.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma sifatida amaliy mashg'ulotlarni faol shaklda tashkil etishga oid ikki umumiy tamoyilni ko'rsatish mumkin.

Birinchi tamoyil – **"nazariyadan amaliyotga"** tamoyilidir. Bunda savol va topshiriqlar nazariy masalalardan kelib chiqib tuziladi hamda talabalarga amaliy



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



hayotdan (kundalik turmush, o'qish, mehnat, ijtimoiy-siyosiy, sport va boshqa faoliyatlardan) mos misollar topish taklif etiladi.

Ikkinchi tamoyil – **“hayotdan nazariyaga”** tamoyilidir. Bu holda topshiriqlarda turli amaliy vaziyatlar beriladi va talaba ularni ma'lum bir nazariya nuqtayi nazaridan tahlil qilishi talab etiladi.

Har bir insonda o'rganish, bilim izlash va rivojlanishga bo'lgan ichki ehtiyoj mavjud. Inson o'zining va xalqining kelajagi buyuk bo'lishini istaydi. Shu sababli u doimo o'z ustida ishlashi, yangilik yaratishi va o'zini qayta kashf etib borishi zarur. Shu ma'noda, bugungi kunda mamlakatimizda ham, xorijiy davlatlarda ham jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi shaxsni rivojlantirish, uning ijodiy tashabbuskorligini, mustaqilligini, bilimga intilishini va harakatchanligini shakllantirishning yangi yo'llarini faol izlash davri sifatida tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. John Dewey. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
2. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950.
4. William Heard Kilpatrick. The Project Method. New York: Teachers College Press, 1918.
5. David A. Kolb. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. New Jersey: Prentice Hall, 1984.
6. Linda Darling-Hammond. Powerful Teacher Education. San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
7. Thomas L. Good, Jere E. Brophy. Looking in Classrooms. Boston: Allyn & Bacon, 2008.